

CHOLG‘U IJROCHILIGI: TURLARI BO‘YICHA

yo‘nalishiga topshirgan abituriyentlar diqqatiga

Hurmatli abituriyent!

1. Siz 2021-2022 o‘quv yilida Andijon davlat universitetining 5150700-Cholg‘u ijrochiligi: (turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirdingiz, endi kasbiy (ijodiy) imtihonda xalq cholg‘ularida ijrochilik va garmoniya fanlaridan o‘z bilimlaringizni va ijodiy mahoratingizni namoyon etasiz. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari, qaysi guruhda ekanligingizni va qaysi kuni imtihonga kelishingiz haqidagi ma’lumotlarni universitetimizning <http://adu.uz> saytidan olishingiz mumkin.

2. Siz o‘zingiz bilan pandemiya holatini inobatga olgan holda, xavfsizligingizni ta’minalash maqsadida himoya vositasi – tibbiy niqob bilan kelishingiz so‘raladi. Abituriyentlar o‘zлari bilan shaxsini tasdiqlovchi pasporti va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishlari shart.

3. O‘qishga kiruvchi 30 daqiqa gacha bo‘lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (yirik shakl, o‘zbek xalq musiqasidan namuna, mahoratlari asar)ni ijro etib berishi, 10 daqiqa gacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

Ta’lim yo‘nalishlariga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro‘yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano jo‘rligida yoddan ijro etishadi.

Imtihonga siz o‘zingiz bilan cholg‘u asbobi, jo‘rnavoz (konsertmeyster)ingizni olib kelishingiz mumkin.

4. **HURMATLI OTA-ONALAR** imtihonlarga farzandingiz bilan kelmasligingizni iltimos qilamiz. Bu birinchi navbatda pandemiya sharoitida o‘zingizning va boshqalarning salomatligi uchun kerak. Shu munosabat bilan ota-onalarga maxsus joylar va boshqa sharoitlar bu yil yaratilmagan. Siz farzandlaringizni kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonini to‘g‘ridan - to‘g‘ri <http://adu.uz> sayti orqali kuzatib borishingiz mumkin. Uyda qoling va karantin qoidalariga amal qiling.